
Tibbiyot xodimlari kuni munosib nishonlandi

2006 yil 12-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi tibbiyot xodimlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq mamlakatimizda noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi shifokorlarning kasb bayrami sifatida har yili tantanali nishonlanib kelinadi.

Qo‘sh tepa tumani hokimligi tomonidan ushbu kun munosabati bilan tumandagi barcha tibbiyot xodimlari uchun bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirda tuman hokimi I. Novikov tibbiyot xodimlarini xalq bilan birga bo‘lib, har bir aholining xonadonlariga tibbiy madaniyatni, sog‘lom turmush tarzini olib kirishlari, ularning dardiga shifo, qalbiga malham bo‘lishlari kerakligini alohida ta‘kidlab o‘tdi va soha xodimlarini kasb bayramlari bilan samimiy tabrikladi hamda sovg‘alar ulashdi.

San‘atkorlar tomonidan yangragan kuy, qo‘shiqlar jarangi, raqslar ketma-ketligi tadbirning yanada ko‘tarinki kayfiyatda o‘tishini ta‘minladi.







2019-11-10 16:58:10